

XAYRIDDIN SULTONOV ASARLARING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Xoliqulov Asqar

O'zMU magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14421719>

Annotatsiya. Mazur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyoti yirik namoyandalardan biri Xayriddin Sultonov hikoya va qissalarida ishlatilgan so'zlarning lingvopoetik xususiyatlar to'g'risida mulohaza yuritiladi. Adib asarlarida hayot voqeligi, tarixiy haqiqat, insonning murakkab ichki kechinmalari ta'sirchan tarzda badiiy aks ettirilishi, voqelikka yuksak insonparvarlik nuqtayi nazaridan qaralishi to'g'risida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: Xayriddin Sultonov, lingvopoetik xususiyat, qissa, tarixiy mavzu, zamonaviy hayot, tarixiy shaxs obrazi.

LINGUPOETIC FEATURES OF KHAYRIDDIN SULTANOV'S WORKS

Abstract. The present article discusses the linguopoetic features of the words used in the stories and short stories of one of the prominent figures of contemporary Uzbek literature, Khayriddin Sultanov. The author's works reflect on the impressive artistic reflection of life realities, historical truth, and complex internal experiences of a person, as well as his view of reality from a highly humanistic point of view.

Keywords: Khayriddin Sultanov, linguistic-poetic feature, story, historical theme, contemporary life, image of a historical figure.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХАЙРЫДДИНА СУЛТОНОВА

Аннотация В данной статье Хайридин Султанов, один из ведущих представителей современной узбекской литературы, комментирует лингвопоэтические особенности слов, используемых в его рассказах и романах. В своих литературных произведениях он выразил свое мнение о реальности жизни, исторической правде, эффективном художественном отображении сложных внутренних переживаний человека, взгляде на действительность с высокогуманитарной точки зрения.

Ключевые слова: Хайридин Султанов, лингвопоэтическая особенность, повесть, историческая тема, современная жизнь, образ исторической личности.

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi har bir adabiy davrning muhim ilmiynazariy masalalari, muammolari bilan boshqa tilshunoslik sohalaridan ajralib turadi va bu masalalar uning o'ziga xos xarakterli xususiyati hisoblanadi, desak yanglishmaymiz. Zero, badiiy ijod namunalarimiz, mukammal adabiy merosimiz lingvopoetik xususiyatlarini to'laqonli tahlil qilish bugungi o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

Jahon tilshunosligida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab badiiy matnning til xususiyatlari o'rganishga e'tibor kuchaydi. Buning natijasida lingvopoetika deb ataluvchi tilshunoslik tarmog'i shakllanib, istiqbolli bir yo'nalishga aylanib ulgurdi. Ma'lumki, nutqiy faoliyatning o'ziga xos noyob turi- bu badiiy adabiyotdir. Uning til birliklari tadbiq etishda lingvopoetik tahlil muhim ahamiyatga ega. Lingvopoetika tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o'rganishga qarab fonetik poetika, leksik poetika, sintaktik poetika kabi qismlarga bo'linadi¹.

Lingvopoetikaning poetik fonetika yo'nalishi yozuvchi tomonidan tanlab olingan uslubni yaratishda ma'lum tovushning o'ziga xos tarzda o'zgarishi, orttirilishi va shunga o'xshash holatlarning yuzaga chiqishi yordamida hosil bo'ladi. Buning yorqin misolini Xayriddin Sultonov asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Xayriddin Sultonov asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Adibning «Boburiynoma», «Boburning tushlari», «Umr esa o'tmoqda», «Onamning yurti», «Bir oqshom ertagi» kabi kitoblaridagi hikoya, qissa, esselari o'quvchilar e'tiborini qozongan.

Adabiyotshunos Umarali Normatov yozuvchi Xayriddin Sultonov ijodi haqida mulohaza yuritir ekan: «Dunyoning siri», «G'ulomgardish», «Qog'oz gullar», «Saodat sohili», «Yozning yolg'iz yodgori», «Ko'ngil ozodadur...» kabi qissa, hikoyalari; «Andisha», «Shoirona, darveshona bir ma'no», «Boburning tushlari» singari badealari o'tgan asr oxirgi choragi milliy adabiyotimiz taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi. Bu asarlar shaxs jumbog'i, inson ruhiyatidagi sirli-sehrli xususiyat, holatlarni alohida bir nazokat bilan teran anglash hamda nafosat tuyg'usiga yo'g'rilgan holda ifoda etish san'ati bilan milliy nasrimizda o'ziga xos hodisaga aylandi» deydi².

Yozuvchining qissa, hikoyalarida qalamga olingan voqealar hayotdagi hodisalarga o'xshaydi. Ulardagi qahramonlar xuddi hayotdagi odamlar kabi ko'rinadi. Bu qahramonlarning o'y-kechinmalari, dard-tashvishlari hech kimni befarq qoldirmaydi.

Xayriddin Sultonov asarlarida hayotdagi oddiy hodisalar qalamga olinadi. Kishilarning kundalik hayoti, tashvishi, intilishlari, o'zaro munosabatlari haqida hikoya qilinadi. Yozuvchi qissa, hikoyalari uchun asosan oddiy odamlarni qahramon qilib oladi. Ularning ruhiy kechinmalarini ishonarli va ta'sirchan gavdalantiradi. «Chollar palatasi» hikoyasida kuz manzarasini yozuvchi bunday tasvirlaydi: «Yonbosh qishloqqa kuz erta tushdi. Kechagi yashilligidan ayrilgan za'faron barglar mungli shivirlab, so'ngsiz hasratini ifoda qilmoqchiday qo'nimsiz tentiraydi. Achchiq izg'irin allaqaerdan qor sharpasini haydab keldi, g'ofil kimsalarni qilichini ko'tarib qish kelayotganidan ogoh etgan kabi birdan qora sovuq tushdi.

¹ Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi.-Toshkent: Fan.2008.-B.152

² «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2006 yil 20 yanvar

Odamlar o'tin-ko'mir, issiq kiyim ilinjida yugurib qolishdi, allanechuk yuvosh tortgan nozik-nihol kishilarning tashvishi kuchaydi: seryog'in, namchil havo ko'p dardlarni yangilab yubordi»³.

Badiiy matn muallifning idiolektiga ko'ra tilning tasvir imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan, o'quvchiga estetik ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan murakkab butunlikdir. Shu jihatdan kelib chiqqan holda asarda ta'sirchanlik birinchi o'ringa chiqadi. Bu holni biz sevimli o'zbek adibi, yuksak so'z san'atkori Xayriddin Sultonov asarlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Adibning "Saodat sohili" hikoyasida keltirilgan quyidagi parchaga e'tibor qaratamiz.

— Qaytgim keladir, mavlono! — dedi Bobur to'liqib. — Ammo imkon qayda?.. Siz bilan ko'rishganimdan buyon g'arib bir xayol tunu kun tinim bermaydir. Ul viloyatlarni endi zo'ru zarb bilan ola bilmasmen, Xayr, olayin ham. Lekin dastimdan shuncha sitam ko'rgan ona yurtimga yana sitam o'tkazamanmi?.. Yo'q, balki o'zga chora izlab ko'rmoq darkordir. Rozimen, kindik qonim to'kilmish yurtga shohlik minnatidan xalos bo'lib, qalandar libosida qaytay...⁴

Keltirilgan misolda tinim bermaydir fe'lini asarda kelishini lingvopoetik tahlilga tortamiz.

Tinim bermaydir fe'lining "O'zbek tilining izohli lig'ati"da quyidagicha izohi berilgan.

1. Dam bermaslik, betinim holatda tutmoq.
2. Tinch-oromini buzmoq, tinchlik bermaslik⁵.

Izohli lug'atda berilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, bu o'rinda tinim bermaslik fe'li birinchi ma'noga (dam bermaslik, betinim holatda tutmoq.) ma'nosiga mos keladi. Adib "Siz bilan ko'rishganimdan buyon g'arib bir xayol tunu kun tinim bermaydir" deya shaxsga xos bo'lgan harakatni nozik so'zlarga ko'chirib go'zal va obrazli tasvir vositasini o'quvchi ko'z oldida gavdalandira olgan.

Xayriddin Sultonov asarlaring lingvopoetik tahlili uning badiiy so'z imkoniyatidan mohirona qo'llaganligini ko'rishimiz mumkin. X.Sultonovning "Ajoyib kunlarning birida" qissasida ekspozitsiya quyidagicha beriladi:

"Bu voqea ajoyib kunlarning birida ro'y berdi. Ochig'ini aytganda, bu kunni bu qadar ajoyib deb ham bo'lmasdi(havo sovuq, yer balchiq, yo'l-yo'lkalar shilta-shalobbo, samolyotga bilet yo'q, "Paxtakor" birinchi ligaga tushib ketgan... Lekin, baribir bu ajoyib bir kun edi (Odamlar shoshib ishga borar, maydonlarda galagala kaptar o'ynar, do'konlarda savdo chaqqon, radiodan Munojot "Munojot"ni qarsillatib aytib turar, namchil xiyobonlarda shamsiya tutgan oshiqqlar ohista kezar edi. Xullas bu voqea ana shunday kunlarning birida ro'y berdi.

³ Sultonov X. Bir oqshom ertagi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 38 bet.

⁴ Sulton X./ Saodat sohili: - T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot va matbaa ijodiy uyi, 2005- B.114

⁵ "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2020-yil.

Olis tog' etagidagi qishloqdan kelgan qirq uch yashar bir kishi kechqurun "Semurg" mehmonxonasining ma'murasiga ro'para bo'lib, odatdagidek umidvor ohangda(-Joy bormi?-deb so'radi".

Mazkur matnda keltirilgan ana so'zi vositasida yozuvch anafora san'atidan unumli foydalangan. Ushbu so'z shunchaki takror emas, balki lirik qahramon fikrini ta'kidlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, ma'rifatparvar ijodkor, milliy Uyg'onish davri o'zbek adabiyotining taniqli vakili, jamoat arbobi Xayriddin Sultonovning asarlarini tahlil qilish jarayonida ijod tilining betakrorligi, lingvopoetik tadqiq asoslarining barcha yo'nalishlarini o'zida jamlaganligining guvohi bo'lamiz. Xayriddin Sultonov asarlaridagi fonetik poetika asosan fellarda hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Leksik poetika orqali adib tazod, tanosub, tashbeh, istiora kabi sa'natlarda yangidan yangi topilmalar kashf etganligi mahoratli qalam sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari Xayriddin Sultonovning qissalarida asar qahramonlarining taqdirleri voqelik bilan uzviy holda ya'ni syujet, kompozitsiya va xronotop tasvirida oydinlashadi. Bu esa ijodkorning o'ziga xos uslubini belgilab ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunosliknazariyasi.-Toshkent: Fan.2008.-B.152
2. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2006 yil 20 yanvar
3. Sultonov X. Bir oqshom ertagi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 38 bet.
4. Sulton X./ Saodat sohili: - T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot va matbaa ijodiy uyi, 2005- B.114
5. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2020-yil.
6. www.tsuull.uz
7. www.cyberleninka.ru
8. www.izoh.uz